

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

TASHPULATOV UYGUN BEKMURZAYEVICH

**SABZAVOT EKINLARI ZARARKUNANDALARIGA QARSHI BIOLOGIK
KURASH USULINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

06.01.09 – O'simliklarni himoya qilish

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2023

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Tashpulatov Uygun Bekmurzayevich

Sabzavot ekinlari zararkunandalariga qarshi biologik kurash usulining samaradorligini oshirish.....5

Ташпулатов Уйгун Бекмурзаевич

Повышение эффективности биологической борьбы с вредителями овощных культур.....19

Tashpulatov Uygun Bekmurzaevich

Increasing efficiency of biological methods to control pests of vegetable crops....37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....41

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

TASHPULATOV UYGUN BEKMURZAYEVICH

**SABZAVOT EKINLARI ZARARKUNANDALARIGA QARSHI BIOLOGIK
KURASH USULINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

06.01.09 – O'simliklarni himoya qilish

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2023

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Qx1036 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.agrar.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shukurov Xushvaqt Mamasoliyevich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Xaytmuratov Arslonbek Fayzullayevich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Boyg'igitov Fozil Muhammadiyevich
qishloq xo'jaligilari fan nomzodi,
katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

**Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik
ilmiy-tadqiqot inistituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «__» _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 260-48-00; faks: (99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazi binosi Tel.: (99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «__» tarqatildi.

(2023 yil «__» _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi)

G.R.Xolmurodova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, q.x.f.d., professor

A.A.Iminov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, q.x.f.d., professor

M.E.Saidova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda oziq-ovqat mahsuloti sifatida sabzavot ekinlari 100 dan ortiq mamlakatlarda etishtirilib, aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabini ma'lum darajada qondirmoqda¹. Jaxonda sabzavot ekinlarini etishtirish bo'yicha etakchi o'rinda Xitoy, Amerika, Rossiya, Hindiston, Eron davlatlari hisoblanadi. Sabzavot ekinlari inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, oziq-ovqat ratsionida muhim o'rin tutadi. Aholini bu mahsulotlar bilan yil davomida uzluksiz ta'minlash uchun ularning hosilini kasallik va zararkunandalardan samarali himoya qilishning usul va vositalarini izlab topish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ekinlarda turli xil kasallik va zararkunandalar ko'p miqdorda uchrashi va 30-40% gacha xosildorlikni kamayishiga olib kelmoqda. Kimyoviy mineral o'g'itlardan va boshqa kimyoviy moddalardan muntazam foydalanish natijasida tuproqning biologik faolligi va unumdorligi ko'rsatkichi salbiy tomonga qarab o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, tuproqda to'planib borayotgan kimyoviy birikmalar o'simlik mahsulotlariga va undan inson organizmiga o'tishi natijasida og'ir kasalliklarni keltirib chiqarishi, yurak qon tomir tizimi buzilishi, inson va hayvonlar nasliga salbiy ta'sir etishi aniqlangan. Shu boisdan sabzavot ekinlari zararli organizmlariga qarshi atrof muhitga bezarar bo'lgan biologik kurash usulini samaradorligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dunyoda bugungi kunda sabzavot ekinlarida bir necha turdagi zararkunandalar zararlab, hosil miqdorini kamaytirib, uning sifatini buzmoqda. Bunday zararkunandalarga kuzgi tunlam, g'o'za tunlami, karadrina, g'ovaklovchi pashshalar, pomidor zang kanasi, o'rgimchakkana, issiqxona oqqanoti, issiqxona tripsi, o'simlik shiralari va boshqa turli sistematik oilalarga mansub bo'lgan zararkunandalar bilan kuchli zararlanishi natijasida o'simlik hosili yo'qotilmoqda. Shu bilan bir qatorda Respublikamizda oldin uchramagan adventiv hasharotlar paydo bo'la boshladi. Shuning uchun bu zararkunandalarning biologik va ekologik rivojlanish xususiyatlarini va zararini o'rganib, zararkunandalarga qarshi olib boriladigan kurash choralarini ilmiy asoslab, iqtisodiy tejamkor, kam zaxarli usul va vositalar majmuini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda sabzavot ekinlarini etishtirishda zararkunandalarning zarari ta'sirida umumiy hosilning 10% dan 60% gacha yo'qotilishi mumkin. Shu sababli mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, jahon bozorida o'z o'rniga ega ilmiy asoslangan texnologiya va vositalar asosida mahsulotlarni etishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmonida «oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari etishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish

¹OERKE E.C. Crop losses to pests. Journal of Agricultural Science, Institute for Plant Diseases, Cambridge University Press, 2005.

va joriy etish»dek muhim vazifalardan biri qilib belgilangan². Shunga ko'ra, sabzavot ekinlari etishtirishda ularni zararkunandalardan himoya qilishning uyg'unlashgan kurash tizimini ishlab chiqish va ishlab chiqarish amaliyotida keng joriy etish muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 oktabrdagi «Sarimsoqpiyoz hamda to'qsonbosti usulida sabzavot mahsulotlarini etishtirish va eksport qilishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4863-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustivor yo'nalishiga doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sabzavot ekinlarining zararkunandalarini tur tarkibi, bioekologik rivojlanish hususiyatlari, tarqalishi, zarari va ularga qarshi kurash usullarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy olimlardan Agamir Karimi., H.F.Alrubeai, C.S.Bastos, K.S.Brar, G.C.Varma, and M. Shenhmar Bull, D., and R.J. Coleman., Bull, D.L., Carriere Y., Boivin G., Li Li-Ying, Li-Ying, W.H.Liu, Z.N.Xie, G.F.Xiao, Y.F.Zhou, D.H.Ou Yang, L.Y.Li, E.B.Lopatina, S.V.Balashov and V.E.Kipyatkov, A.Maceda, C.L.Homhmann, R.D.S.Honorio, D.Paratissoli, J.C.Zanuncio, J.S.Urvianna, E.M.Andrade, tadqiqotlar olib borilgan. MDH mamlakatlari olimlaridan Telenga N.A., Shepetilnikova V.A., Telenga N.A. A.V.Tkachev, S.Y.Reznik, N.P.Vagina, S.Y.Reznik, N.P.Vagina, N.D.Voynovich S.Y.Reznik, T.S.Kats, P.Ruzmetov, A.D.Andrianov, V.A.Pavlyushin, S.R.Fasulati kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra sabzavot ekinlari agrobiotsenozida 100 dan ortiq turdagi zararkunandalar uchrashi qayd etilgan bo'lib, ularni ichida dominant tur zararkunandalarga qarshi kurash usullarini ishlab chiqqan.

O'zbekiston sharoitida sabzavot ekinlarini o'rganish va ularga qarshi kurash usullarini ishlab chiqish bo'yicha B.P.Adashkevich, H.Mirzaaliyeva, S.N.Alimuxxamedov, SH.T.Xo'jayev, X.X.Kimsanboyev, M.I.Rashidov, A.U.Sagdullayev, M.T.Arslonovlar ijobiy natijalarga erishgan. Ushbu olimlar tomonidan sabzavot ekinlarining zararkunandalarini tur tarkibi, biologik va ekologik rivojlanish hususiyatlari, zarari, tarqalishi va ularga kurashish yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan.

Ammo, tadqiqotlar tahliliga ko'ra sabzavot ekinlarining zararkunandalariga qarshi biologik usulni samaradorligini oshirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar etarli o'tkazilmaganligini ko'rsatadi. Shu sababli bu yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni

tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universitetining ilmiy ishlari rejasiga kiritilgan bo‘lib, “Yangi kimyoviy vositalarini sinovdan o‘tkazish va biologik samaradorligini aniqlash” mavzusi hamda № QXA-9-004-2017 «Sabzavot ekinlari agrobiotsenozida zararkunandalar sonini boshqarishda uyg‘unlashgan himoya qilish tizimini ishlab chiqish» (2017-2019 yy.) loyihalarining rejalari bilan bog‘liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sabzavot ekinlari zararkunandalarini tur tarkibi, biologik xususiyatlari, tarqalishi, zararini o‘rganish asosida ularni sonini boshqarishda biologik himoya qilish usulini samaradorligini oshirish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sabzavot (karam, pomidor, piyoz) ekinlari zararkunandalarining ro‘yxatiga aniqlik kiritish, ulardan asosiy (iqtisodiy ahamiyatli) va ikkilamchi bo‘lgan zararkunandalarni belgilash;

zararkunandalarning tabiiy kushandalarini tur tarkibi va ularning tarqalish arealini o‘rganish;

zararkunandalarga qarshi kurashda yirtqich entomofaglarning samaradorligini aniqlash;

sabzavot (karam, lavlagi, pomidor, sabzi, piyoz, ko‘katlar va boshqalar) ekinlari agrobiotsenozida entomofaglarning tabiiy populyatsiyalarini boyitishda nektarli o‘simliklarni samaradorligini belgilash;

zararkunandalarga qarshi kurashda mikrobiologik preparatlarning samaradorligini aniqlash;

tabiiy entomofaglar faolligiga kimyoviy preparatlarning ta‘sirini o‘rganish;

sabzavot ekinlari (karam, pomidor, sabzi) agrobiotsenozida zararkunandalarga qarshi biologik kurash usulining samaradorligini oshirish va ilmiy asoslangan muddatlarda ishlab chiqarish;

zararkunandalarga qarshi biologik kurash usulining samaradorligini oshirish tizimini ishlab chiqarish va iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida sabzavot ekinlariga zarar keltiruvchi zararkunandalar, parazit, yirtqich, entomofag, entomofaglar faolligini oshiruvchi nektarli o‘simliklar olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida sabzavot ekinlari zararkunandalariga qarshi qo‘llanilgan entomofaglar, mikrobiologik va kimyoviy preparatlarni qo‘llash usullari hamda biologik usulning samaradorligini oshirish olingan.

Tadqiqot usullari. Sabzavot ekinlari (karam, lavlagi, pomidor, sabzi, piyoz, ko‘katlar va boshqalar)ning zararkunandalarini hisobga olish, zararkunanda va entomofaglarning turini aniqlash uchun kuzatuvlar olib borish va namunalar yig‘ishda V.F.Paliy, B.P.Adashkevich, E.S.Shiyko, N.V.Bondarenko, G.Y.Bey-Biyenko, L.M.Kopaneva, A.F.Chenkin uslublaridan, agrotoksikologik tadqiqotlar SH.T.Xo‘jayev uslubidan, biologik samaradorlik W.S.Abbot formulasiga asosan, tajriba asosida olingan barcha ma‘lumotlar B.A.Dospexov uslublari yordamida matematik va statistik tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Toshkent viloyati sharoitida sabzavot ekinlari (karam, pomidor, piyoz)

zararkunandalarining 54 ta turi aniqlangan, ulardan mevasi bilan oziqlanadiganlari 14,7 %, ildizi bilan oziqlanadiganlari 31,3 % hamda bargi bilan oziqlanadigan turlari 54 % ekanligi qayd etilgan;

zararkunandalarning tabiiy kushandalarini 36 ta turi aniqlanib, zararkunandalarni nobud qilish aniqlangan va ularning tarqalish areali tadqiq qilingan;

sabzavot ekinlari (karam, pomidor, sabzi, piyoz, va boshqalar) agrobiotsenozida entomofaglarning tabiiy populyatsiyalarini boyitishda nektarli o'simliklarni samaradorligi belgilangan;

tabiiy entomofaglar faolligiga kimyoviy preparatlarning ta'siri aniqlangan;

sabzavot ekinlari (karam, pomidor, sabzi) agrobiotsenozida zararkunandalarga qarshi biologik kurash usulining samaradorligini oshirish va ilmiy asoslangan muddatlarda ishlab chiqilgan;

Tadqiqotlarning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sabzavot ekinlariga zarar etkazadigan shiralarga qarshi oddiy oltinko'z lichinkalari 1:10 nisbatda qo'llanilganda 81,3 % gacha, etti nuqtali oltinko'z lichinkalari 1:50 nisbatda tarqatilganda 91,1 % gacha samaradorlikka erishilgan;

zararkunandalarga qarshi kurashda yirtqich entomofaglardan oddiy oltinko'z va 7 no'qtali oltinko'z qo'lanilib, 62,4-90,2 % gacha biologik samaradorlikka erishilgan;

zararkunandalarga qarshi kurashda mikrobiologik preparatlardan Bioslip BV 2,0 l/ga sarf miqdorida 85,1-86,0%, g'o'za tunlamiga qarshi Bioslip BT 2,0-2,5 kg/ga sarf miqdorda qo'llanilganda 83,1-87,8 % gacha biologik samaradorlik aniqlangan;

zararkunandalarga qarshi biologik kurash usulining samaradorligini oshirish tizimi ishlab chiqilib, zararkunandalardan himoya qilishda sarflangan 1 so'm o'zini o'rtacha 6,8-8,8 martagacha qoplanishi baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Laboratoriya va dala tajribalari uslublaridan foydalanilgan holda olingan ma'lumotlarga ishlov berilganligi, nazariy va amaliy natijalarining bir-biriga mos kelganligi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan solishtirilganligi, aniqlangan qonuniyatlar va xulosalar asoslanganligi, olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari chuqur matematik-statistik tahlil qilinganligi, ilmiy va amaliy natijalar mutaxassislar tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilib baholanganligi, izlanishlar natijalari amaliyotda keng joriy qo'llanilganligi, ilmiy va amaliy natijalar asosida ikkita mikrobiologik preparatlar Davlat kimyo komissiyasining ro'yxatiga kiritish uchun tavsiya berilganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Sabzavot ekinlari zararkunandalari (karam, pomidor, piyoz)ning tur tarkibi, tarqalishi, bioekologik xususiyatlari va ularning zarari aniqlangan. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida tabiiy entomofaglarning biotsenozdagi faolligini oshirish usullari tizimi ishlab chiqilgan va zararkunandalarga qarshi mikrobiologik preparatlar: «Bioslip BT» (*Bacillus thuringiensis*) va «Bioslip BV» (*Beauveria bassiana*) preparatlari sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sifatida olingan natijalarni

respublikaning turli xududlarida sabzavot ekinlari(karam, pomidor, sabzi) ning zararkunandalariga qarshi uyg'unlashgan kurash himoya tizimini ishlab chiqish va ularning samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sabzavot ekinlari zararkunandalariga qarshi biologik kurash usullarining samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

karam shiralarga qarshi oddiy oltinko'zni 2-yoshdagi lichinkalarini 1:50, 1:10 va 3-yoshdagi lichinkalarini 1:10 nisbatlarda, yetti nuqtali oltinko'zning 1-2 yoshdagi lichinkalarini 1:100, 1:50 nisbatlarda, pomidorda g'o'za tunlami tuxumlariga qarshi trixogrammaning 2 ta turi *Trichogramma pintoii* va *Trichogramma chilonis* turlarini 1:10, 1:15, 1:20 nisbatlarda hamda g'o'za tunlami qurtlariga qarshi brakon kushandasini 1:10, 1:15 nisbatlarda qo'llash texnologiyasi Toshkent viloyatining Qibray, Yangiyo'l va Oqqo'rg'on tumanlaridagi sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida jami 79,0 gektar maydonga joriy qilingan («O'ZAGROKIMYOHIYOYA» aksiyadorlik jamiyatining 2021 yil 3 fevraldagi №02-13/61-son ma'lumotnomasi). Natijada, karam o'simligida oddiy va yetti nuqtali oltinko'z lichinkalarini shiralarga qarshi qo'llanilishi 81,3-91,1 %, pomidorda g'o'za tunlami tuxumlariga qarshi trixogrammaning *Trichogramma pintoii* va *Trichogramma chilonis* turlarini qo'llanilishi 65,8-86,1 % gacha samara bergan.

sabzavot ekinlarining asosiy zararkunandalaridan hisoblangan o'rgimchakkana va shiralarga qarshi oltinko'z kushandasini qo'llash texnologiyasi Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidagi "Nurmuhammad ishonch", "Hakimjon fayzli bog'i" fermer xo'jaliklarining 39,0 gektar, Oqqo'rg'on tumanidagi "Xusanjon Sanjar" fermer xo'jaligining 20,0 gektar va O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutining 20,0 gektar maydonlariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 17-martdagi №03/35-1326-son ma'lumotnomasi). Natijada, sabzavot ekinlarining asosiy zararkunandalaridan o'rgimchakkana va shiralarga qarshi oltinko'z kushandasi qo'llanilganda nazoratga nisbatan 81,3-91,1 % ga, g'o'za tunlami tuxumlariga qarshi trixogramma qo'llanilganda esa 65,8-86,1 % gacha biologik samaradorlikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jumladan ilmiy jurnallarda 3 ta maqola, 1 ta xorijiy jurnalda, 2 ta xalqaro, 3 ta Respublika konferensiyalarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Sabzavot ekinlari zararkunandalariga qarshi biologik kurash usulining samaradorligini oshirish**» deb nomlangan birinchi bobida tanlangan mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbaalar, internet ma'lumotlari, dunyoning etakchi olimlarining ilmiy ishlari natijalari o'rganilib, sabzavot ekinlarini zararkunandalardan himoya qilish masalalari hamda zamonaviy himoya qilish usul va vositalarini qo'llash imkoniyatlari, bu borada o'tkazilgan tadqiqotlarining ahvoli va mavjud muammolarning majmuasi aniqlab berilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot olib borilgan joylar va ishlatilgan uslublar**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o'tkazilgan joyning (Toshkent viloyati) iqlim sharoiti, tabiiy-geografik va agrometeorologik tavsifi o'rganilgan va tajriba o'tkazish sharoiti bo'yicha ilmiy ish manbalari va ish uslublari ishlab chiqilgan. Tadqiqotlar Toshkent viloyatining Qibray, Yangiyo'l va Oqqurg'on tumanlarida sabzavot ekinlarini etishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida olib borilgan.

Sabzavot ekinlari (karam, lavlagi, pomidor, sabzi, piyoz, ko'katlar va boshqalar)ning zararkunandalarini hisobga olish, zararkunanda va entomofaglarning turini aniqlash uchun kuzatuvlar olib borish va namunalar yig'ishda V.F.Paliy, B.P.Adashkevich, E.S.Shiyko, N.V.Bondarenko, G.Y.Bey-Biyenko, L.M.Kopaneva, A.F.Chenkin uslublari asosida bajarilgan. Zararkunandalarning zarari va zarar keltirish darajasini aniqlashda V.I.Tanskiy uslubi yordamida bajarilgan. Tajribalarda qo'llanilgan preparatlarni biologik samaradorligi W.S.Abbot formulasi asosida aniqlangan. Tajriba asosida olingan barcha ma'lumotlar B.A.Dospexov uslublari yordamida matematik va statistik tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning «**Sabzavot ekinlari (karam, pomidor, sabzi) agrobiotsenozida zararkunanda va entomofaglarning tur tarkibi va rivojlanish xususiyatlari**» deb nomlangan uchinchi bobida sabzavot ekinlari agrobiotsenozida asosiy zararkunanda, entomofaglar tur tarkibi va o'simliklar bilan o'zaro oziqlanish zanjiri, yirtqich oltinko'zning rivojlanish xususiyatlari, xo'raligi hamda agrobiosenozda entomofaglarning faolligini oshirish usullarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Respublikamiz sharoitida bir necha turdagi sabzavot ekinlari etishtiriladi. Lekin har bir ekinning o'ziga xos zararkunandalari mavjud bo'lib, ular polifag, oligofag va monofaglarga bo'linadi. Bu zararkunandalar keltiradigan zarari ayrim yillari 50-60% gacha etkazadi. Sabzavot ekinlari agrobiotsenozida mavjud zararkunandalar va ularning entomofaglari tur tarkibini o'rganish bo'yicha

Toshkent viloyatining Qibray, Yangiyo‘l, Okkurg‘on tumanlarida ushbu ekinlarni zararkunandalarini tur tarkibi aniqlanib, asosiy iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan zararkunandalar sistematik o‘rni (sinf, turkum, oila va tur) bilan keltirilgan.

Sabzavot ekinlari (karam, pomidor, sabzi) agrobiotsenozida yarim qattiqqanotlilar 8 %, ikki qanotlilar 6%, tengqanotlilar 16 %, to‘g‘riqanotlilar, 12 %, qattiqqanotlilar 31%, tangachaqanotlilar esa 21 % tashkil etdi. Turkumlar orasida qattiqqanotlilar turkumiga mansub zararkunandalar ko‘p sonda uchragani aniqlangan (1-rasm).



1-rasm. Sabzavot ekinlari (karam, pomidor, sabzi) zararkunandalarining turkum vakillari nisbati.

Sabzavot ekinlari (karam, pomidor, piyoz) agrobiotsenozida 2 ta sinf, 11 ta turkum, 22 ta oilaga mansub 54 ta tur zararkunandalar uchraydi. Bular, ya'ni Kanalar turkumiga mansub 3 ta tur, Tangaqanotlilar (*Lepidoptera*) turkumiga mansub 10 ta tur, Qattiqqanotlilar (*Coleoptera*) turkumiga mansub 15 ta tur, To‘g‘riqanotlilar (*Orthoptera*) turkumiga mansub 6 ta tur, Tengqanotlilar (*Homoptera*) turkumiga mansub 8 ta tur, Ikkiqanotlilar (*Diptera*) turkumiga mansub 3 ta tur, Hoshiyaqanotlilar yoki tripslar (*Thysanoptera*) turkumiga 3 ta tur, Yarimqattiqqanotlilar (*Hemiptera*) turkumiga mansub 4 ta tur zararkunandalar hisoblanadi.

Sabzavot ekinlari zararkunandalarining oila vakillari bo‘yicha nisbati o‘rganilganda quyidagicha bo‘ldi (1-jadval.).


1-jadval

Zararkunandalarning karam, pomidor, sabzi ekin turlari bo‘yicha uchrashi

Zararkunandalar nomi	Ekin turlari		
	Karam	Pomidor	Piyoz
Oddiy o‘rgimchakkana - <i>Tetranychus urticae</i> Koch.	+	+	+
Piyoz kanasi - <i>Rhizoglyphus echinopus</i> F. et R.	-	-	+
Pomidor zang kanasi - <i>Aculops lycopersici</i> Masee.	-	+	-

Yovvoyi tunlam - <i>Euxoa conspisua</i> Hb.	++	+	+
Kuzgi tunlam - <i>Agrotis segetum</i> Den. et Schiff.	+++	+	+
Gamma tunlami - <i>Phytomenra gamma</i> L.	-	+	-
Karam tunlami - <i>Baratha brassicae</i> L.	+++	-	-
G'o'za tunlami - <i>Heliothis armigera</i> Hb.	+++	+++	-
Beda tunlami - <i>Heliothis viriplasa</i> Hufn.	+	+	-
Karadrina - <i>Spodoptera exigua</i> Hb.	+	+	-
Sholg'om oq kapalagi - <i>Pieris rapae</i> L.	++	-	-
Karam oq kapalagi - <i>Pieris brassicae</i> L.	+++	-	-
Karam kuyasi - <i>Plutella maculipennis</i> Curt.	++	-	-
Pomidor kuyasi - <i>Tuta absoluta</i> L.	-	+++	-
Qora qarsildoq qo'ng'iz - <i>Agriotes obscurus</i> L.	++	+	+
Keng tanali qarsildoq qo'ng'izlar - <i>Selatosomus latus</i> F.	++	+	+
Mo'ylovdor qo'ng'izsimon chertmakchisi - <i>Clon cerambycinus</i> Sem.	+	+	+
Burundor qora qo'g'izi - <i>Dailognatha nasute</i> Men.	+	+	+
CHo'l sekin yurar qo'ng'izi - <i>Beaps halophiea</i> F.W.	+	+	+
Turkiston chertmakchisi - <i>Agriotes meticulosus</i> Cond.	+	+	+
Qumloq qoratanli qo'ng'izi - <i>Opatrum sabulosum</i> L.	+	+	+
CHo'l qoratanli qo'ng'izi - <i>Blaps halophila</i> Fisch.	+	+	+
Jo'xori qoratanli qo'ng'izi - <i>Pedinus femoralis</i> L.	+	+	+
Mart buzoq boshi - <i>Melonotha afficta</i> Ball.	++	+	+
May buzoq boshi - <i>Melolontha melolonta</i> . M. Hypocastani.	+	+	+
Zararli buzoq boshi - <i>Polyphilla adspersa</i> Motsch.	+	+	+
Kichik kravchik - <i>Lethrus pygmaeus</i> Ball.	+	+	+
Mis rang kravchik - <i>L. microbuccis</i> Ball.	+	+	+
Qora kravchik - <i>L. rosmarus</i> Ball.	+	+	+
Oddiy lavlagi burgasi - <i>Chaetocnema concinna</i> March.	+	+	+
Poliz burgachasi - <i>Phyllotreta</i> sp.	+	-	-
Yashil temirchak - <i>Tettigonia viridissima</i> L.	+	+	+
Oq peshona temirchak - <i>Decticus albifrons</i> L.	+	+	+
Oddiy kulrang temirchak - <i>Decticus virrucivorus</i> L.	+	+	+
Otbosar chigirtkasi - <i>Dociostaurus kraussi</i> Ingen.	+	+	+
Qir chigirtkasi - <i>Calliptamus turanicus</i> Tarb.	+	+	+
Quyruqli buzoqbosh - <i>Gryllotalpa paunispina</i> Sauss.	++	+	+
Poliz shirasi - <i>Arhis franglae</i> Koch.	++	+	-
Plotnikov shirasi - <i>Brachyunguis plotnikovi</i> Nev.	+	+	-
Karam shirasi - <i>Brevicoryne brassicae</i> L.	+++	+	-
Lavlagi yoki dukak shirasi - <i>Arhis fabae</i> Scop.	+	+	-
Shaftoli shirasi - <i>Myzodes persicae</i> Sulz.	-	+	-
Beda yoki akatsiya shirasi - <i>Aphis medicaginis - craccivora</i> Koch.	++	+	-
Issiqxona oqqanoti - <i>Trialerodes vaporariorum</i> Westw.	+++	+++	-
G'o'za (tamaki) oqqanoti - <i>Bemisia tabaci</i> Genn.	+++	+++	-
Piyoz pashshasi - <i>Delia antiqua</i> Meig.	-	-	+++
Sabzi pashshasi - <i>Psila rosae</i> F.	-	-	+
G'ovak hosil qiluvchi pashshalar - <i>Phytomyza horticola</i> Gonreau.	+	+++	-
Tamaki tripsi - <i>Thrips tabaci</i> Lind.	+	+++	+
G'o'za tripsi - <i>Th. gossypii</i> Jakh.	+	++	+
Dala so'qir qandalasi - <i>Lygus pratensis</i> L.	+	+	+
Beda so'qir qandalasi - <i>Adelphocoris lineolatus</i> Goes.	+	+	+
Poliz yoki butgullilar qandalasi - <i>Eurydema</i> sp.	+	+	+
Lavlagi qandalasi - <i>Poeciloscitus cognatus</i> Fied.	+	+	+

Sabzavot ekinlaridan karam ekilgan maydonlarda zararkunandalarning 51 turi, pomidor ekinlarida 49 turi va piyozda esa 37 turi uchradi.



■ Mevasi bilan oziqlanadigan ■ Ildizi bilan oziqlanadigan ■ Bargi bilan oziqlanadigan

2-rasm. Sabzavot ekinlarida uchraydigan zararkunandalarning o‘simlikning turli organlari bilan oziqlanishi.

Zararkunandalar o‘simliklarning vegetativ va generativ organlarida tarqalishi bo‘yicha kuzatuvlar olib borilganda barg bilan oziqlanadiganlar – 54 %, mevasi bilan oziqlanadiganlar – 16,7 %, ildizi bilan oziqlanadiganlar – 29,3 % ni tashkil etganligi aniqlangan.

Sabzavot ekinlari agrobiotsenozida uchragan tabiiy kushandalarning ko‘p qismi, ya’ni 8 ta tur *Coleoptera* turkumiga, 4 ta tur *Neuroptera*, 3 ta tur *Diptera*, 10 ta tur *Hemenoptera*, 1 ta tur *Dermaptera*, 2 ta tur *Hemiptera*, 2 ta tur *Thysanoptera*, 1 ta tur *Mantoptera*, 1 ta tur *Arachnoidea* sinfi *Asariphormes* turkumiga, 3 ta tur *Acari* sinfi yirtqich o‘rgimchaklar turkumiga va 5 ta tur *Aves* qushlar sinfiga mansubligi qayd qilindi. Sabzavot ekinlari agrobiotsenozida ko‘p uchraydigan asosiy zararkunandalarning tur tarkibi va sistematik o‘rni 2-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqotlar davomida uchragan entomofaglarining 70,7 % qismi yirtqich hasharotlar bo‘lib, ulardan eng ko‘pi *Coccinellidae* oilasiga mansub 6 ta turni yoki jami yirtqichlarning 20,7 % ni tashkil etdi. *Chrysopidae* oilasiga mansub 4 ta tur entomofaglar yirtqichlarning 13,0 % ni, *Syrphidae* oilasining vakillari esa 3 ta tur, ya’ni 10,3 % ni tashkil qildi.

2-jadval

Sabzavot (karam, lavlagi, pomidor, sabzi, piyoz, baqlajon, ko‘katlar va boshqalar) ekinlari biotsenozida uchragan asosiy entomofaglar turlari

№	Entomofag nomi	Ekin turi		
		pomidor	karam	baqlajon
<i>Coccinellidae</i>				
1.	<i>Coccinella septempunctata</i> L.	+++	+++	+++
2.	<i>Adonia variegata</i> Goeze.	++	+++	+
3.	<i>Adalia bipunctata</i> L.	++	+++	++
4.	<i>Chilocorus geminus</i> Zasl.	+	++	+

5.	<i>Stethorus punctillum</i> M.	+	++	++
6.	<i>Propyllae quatuordecimpunctata</i> L.	+	+	+
Carabidae				
7.	<i>Pterostichus cardaticollis</i> L.	++	++	++
8.	<i>Amara</i> sp.	+	++	+
Syrphidae				
9.	<i>Syrphus corollae</i> F.	++	+++	-
10.	<i>Sphaerophoria rueppelli</i> Weid.	+	+++	-
11.	<i>Sph. scripta</i> L.	+	+++	-
Chrysopidae				
12.	<i>Chrysopa carnea</i> Steph.	+++	+++	+
13.	<i>Ch. septempunctata</i> Wesn.	++	+++	+
14.	<i>Ch. dubitans</i> Melachlan.	+	++	+
15.	<i>Ch. phyllochroma</i> Wesm.	+	++	+
Aphidiidae				
16.	<i>Aphidius ervi</i> Halid.	+++	++	++
17.	<i>Praon volueta</i> Halid.	++	+++	+
18.	<i>Diaeretiella rapae</i> M.lut.	++	+++	++
Braconidae				
19.	<i>Apanteles kozak</i> Nel.	+++	++	-
20.	<i>A. ater</i> Ratz.	+	++	-
21.	<i>Bracon hebetor</i> Say.	+++	+++	-
Ichneumonidae				
22.	<i>Barylypa chlorotica</i> Kok.	++	++	+
23.	<i>Ichneumo penzeri</i> Wesm.	+	+	-
24.	<i>Dibrachus cavus</i> Wlk.	+	+	+
Hymenoptera				
25.	<i>Encarsia formosa</i> Gahan.	+++	++	++
Tachinidae				
26.	<i>Gonia cilipeda</i> Rd.	++	+++	+
27.	<i>Tachina rohdendorfi</i> Zim.	++	+++	+
Dermaptera				
28.	<i>Forficula auricula</i> L.	+	+	++
Hemiptera				
29.	<i>Orius niger</i> Wolff.	++	+	++
30.	<i>Nabis palifer</i> Seid.	+++	+++	++
Thysanoptera, Thripidae				
31.	<i>Scolothrips acariphagus</i> Jakh.	+++	+	+
Mantoptera				
32.	<i>Mantis religiosa</i> L.	++	++	+
Arachnoidea, Asariphormes				
33.	<i>Phytoseiulus corniger</i> W.	++	+++	+
Acari				
34.	<i>Argiope catenulata</i>	+	+	++
35.	<i>Thomisida</i> spp.	+	+	+
36.	<i>Lycosa pseudoannulata</i>	++	+++	+

Izoh: + kam sonda uchradi; ++ o'rtacha miqdorda uchradi; +++ ko'p sonda uchradi.

Oddiy o'rgimchakkana va zang kanasi sabzavot ekinlarining barglarini, tunlamalar barcha sabzavot ekinlarining nihol, barg va mevalarini, oq kapalaklar karam, sholg'om, turp va rediska barglarini, nematodalar, pilakcha mo'ylovli qo'ng'izlar qurtlari, simqurtlar va soxta simqurtlar barcha

ekinlarning ildiz qismini, g'ovak hosil qiluvchi pashshalar, shiralar oqqanot, tripslar va qandalalar pomidor, karam, sabzi va boshqa barcha sabzavot ekinlarining barg, novda va hosil organlarini zararlashi aniqlandi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki turli xil sabzavot ekinlari agrobiotsenozida uchragan tabiiy kushandalardan *Coleoptera*, *Neuroptera*, *Diptera*, *Hemenoptera*, *Dermaptera*, *Hemiptera*, *Thysanoptera*, *Mantoptera*, *Arachnoidea* sinfi *Asariphormes* turkumiga mansub yirtqich o'rgimchaklar ko'p uchradi. Ular ichida shiralar bilan oziqlanuvchi tabiiy kushandalarning ko'p sonda uchrashi kuzatildi.

Dissertatsiyaning «**Sabzavot (karam, pomidor, sabzi) ekinlari zararkunandalariga qarshi biologik usulni qo'llash**» deb nomlangan to'rtinchi bobida oltinko'zning karam shirasiga qarshi samarasi, tunlamlar sonini boshqarishda trixogrammalarni qo'llash samaradorligi, pomidorda g'o'za tunlamiga qarshi brakon samaradorligi va nektarli o'simliklar ekilgan karam agrobiotsenozida entomofaglar, shiralar sonining o'zgarishi va sabzavot ekinlari zararkunandalariga qarshi biopreparatlarning samaradorligi hamda kimyoviy preparatlarning foydali entomofaglarga ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan.

Sabzavot ekinlari agrobiotsenozida afidofaglarining samarasi ularning tashqi muhit omillariga javob reaksiyasi va turning biologik xususiyatlariga, o'simlikdagi zararkunandalar populyatsiyasining zichligiga, entomofaglarni ekin maydonlariga chiqarish miqdoriga va o'simliklarning morfologik xususiyatlariga bog'liq. Sabzavot ekinlarida shiralarga qarshi qo'llaniladigan to'rqanotlilar turkumga mansub tabiiy kushandalardan *Chrysopa carnea* Steph., *Ch. septempunctata* Wesm., turlari olindi. Yirtqich oltinko'z lichinkalarini dalaga chiqarish umumqabul qilingan uslublar asosida quyidagi nisbatlarda, ya'ni *Chrysopa carnea* Steph. (2 va 3 yosh lichinkalari) va *Ch. septempunctata* Wesm. (1 – 2 yosh lichinkalari va imago) turlari 1:50 va 1:100 nisbatlarda olib borildi. Yirtqichlarni chiqarish vaqtida o'rtacha bir o'simlikdagi zararkunandalar soni 350 – 400 donani tashkil qildi. Zararkunanda va entomofaglarni hisobga olish lichinka chiqarilgan maydonlarda 3, 6 va 9 kunlari o'tkazildi. Afidofaglarining tashqi muhit omillariga munosabatlarini har kuni ertalab, kun yarmida va kechqurun ularning faolligini, joylashgan o'rnini, tuxum qo'yishi va boshqa xususiyatlarini hamda havo harorati va namligi kuzatib borilgan. Andoza varianti sifatida tizimli ta'sir qiluvchi Bagira 20 % preparati 0,2 l/ga sarf-meyorda qo'llanilgan.

Yetti nuqtali oltinko'z lichinkalari yuqori ekologik moslashuvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, dalaga chiqarilgan lichinkalar ozuqasi etarli bo'lsa o'simlikni tashlab ketmasdan shiralarni to'liq yo'q qilmaguncha shu joyda oziqlanadi. Havo harorati yuqori bo'lsada (harorat 48 °C) bu yirtqich o'simlikning barcha yaruslarida uchraganligi kuzatilgan.

Har ikkala tur oltinko'zning karam agrobiotsenozida karam shiralari qarshi samaradorligi aniqlanganligi yuzasidan tadqiqot natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

Karam agrobiotsenozida afidofaglarining karam shirasiga qarshi samaradorligi

(O'HQITI, kichik dala tajribalari, 2014 y.)

Entomofag turi	Dalaga chiqarilgan fazasi *	Entomofag va yirtqichlar nisbati	O'rtacha 1 ta o'simlikdagi shiralari soni, hisob kunlari bo'yicha, ekz.				Biologik samaradorlik, % kunlarda		
			Entomofaglar qo'yilmasdan oldin	Entomofaglar chiqarilgandan keyin			3	6	9
				3	6	9			
Chrysopa carnea Steph.	L ₂	1 : 50	2596,1	2275,1	648,2	972,5	12,4	36,5	62,4
	L ₂	1 : 10	1339,8	921,2	614,3	576,4	48,3	73,5	79,4
	L ₃	1 : 10	1051,4	261,6	230,1	215,4	81,3	87,4	90,2
Ch. septempunctata Wesm.	L ₁	1 : 100	930,2	710,2	533,4	472,8	42,6	66,9	75,6
	L ₂	- // -	1534,3	501,3	263,8	192,2	75,4	90,1	94,0
	L ₂	1 : 50	2395,5	284,8	19,6	0	91,1	99,5	100
Bagira 20% (andoza)	0,2 l/ga	-	3956,5	37,9	693,5	1497,6	99,3	89,8	81,8
Nazorat (yirtqichlar qo'yilmagan)	-	-	1651,4	2196,3	2861,3	3451,4	-	-	-
Ilova * L _{1,2,3} - 1,2 va 3 yoshdagi lichinkalar									

O'tkazilgan tadqiqotlarda oddiy oltinko'zning 2-yoshdagi lichinkalarini 1:50 nisbatda dalaga chiqarilganda 3-kunga kelib shiralarning 12,4 % ni nobud bo'lganligi, kushandaning 5 marta oshirib ya'ni 1:10 nisbatda dalaga chiqarilganda zararkunandalar sonini kamayishi 3-hisob kunida 48,3 % ga etdi. Oltinko'z lichinkalarining 7-8 % qismi qolganligi kuzatildi va kutilgan samara olish uchun esa yirtqichlarni yana qayta chiqarish talab qilindi. Faqat 3-yosh lichinkalargina 1:10 nisbatda zararkunandalarga qarshi qo'yilganda shiralari sonini uch kun ichida iqtisodiy zarar miqdori mezonidan past darajaga tushirdi va biologik samaradorlik 81,3 % gacha samara olingan. Yetti nuqtali oltinko'zning 1 va 2 yoshdagi lichinkalari 1:100 nisbatda shiralarga qarshi chiqarilganda 3-hisob kuniga kelib zararkunandalar soni 42,6 % va 75,4 % gacha, yirtqichlar sonini 2 marta oshirganda, entomofag va zararkunanda 1:50 nisbatda chiqarilganda 3-hisob kuniga kelib karam shiralari soni 91,1 % gacha kamayganligi va 9-hisob kuniga kelib shiralari o'simlikda uchramaganligi kuzatildi. Bu kushandaning ikkinchi avlodi karam shirasini 95-96 % gacha kamaytirishi mumkinligi aniqlandi. Faqat yoz oylaridagina oddiy oltinko'zning 3-yosh lichinkalarini shiralarga qarshi qo'llaganimizda kutilgan samara berishi mumkin. 2-yosh lichinkalarini esa havo harorati 30 °C dan yuqori bo'lmagan vaqtda qo'llaganimizda shiralarga qarshi yuqori samara beradi.

Dissertatsiyaning «**Sabzavot ekinlari zararkunandalariga qarshi biologik kurash usulining samaradorligini oshirish**» deb nomlangan beshinchi bobida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, shu jumladan, o'simliklarni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish sohasi ham, iqtisodiy qonunlarga bo'ysunishi,

o'simliklarni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish masalalarini echishda amaliyot bilan bog'liq tomonlarini hisobga olish lozimgi ko'rsatib o'tilgan.

Sabzavot ekinlarining asosiy zararkunandalaridan biri shiralar bo'lib, ularning asosiy zarar keltiruvchi fazasi tez ko'payib qisqa vaqt ichida ko'p sonli koloniyalar hosil qilishi natijasida katta iqtisodiy zarar etkazadi. Shuning uchun ham ularga qarshi qo'llanilgan himoya vositalarining xo'jalik va iqtisodiy samaradorligi o'rganildi. Bu tajribalarda karam shirasiga qarshi Bioslip BT preparati 3,0 kg/ga va andoza Agrofos, 55 % k.e. 1,0 l/ga sarf miqdorida qo'llanilgan.

Bu tajribamiz natijalaridan ko'rinib turibdiki Bioslip BT preparati qo'llanilgan variantda jami olingan hosilning 85,2 % birinchi navli, 12,2 % ikkinchi va 2,6 % uchinchi navli hosil ekanligi aniqlandi. Agrofos, 55 % k.e. preparati qo'llanilgan variantda esa bu ko'rsatgichlar 84,3-11,6 % va 3,1 % ni tashkil qildi. Nazorat variantida esa olingan hosilning asosiy qismi (59,6 %) uchinchi navli bo'lganligi, 1 va 2 navdagi hosil 15,3 - 25,1 % gacha bo'lishi kuzatilgan.

Tadqiqotlarda qo'llanilgan himoya vositalarining nazoratga nisbatan olingan iqtisodiy samaradorligi tajriba variantida 7745,0 ming so'mdan andoza variantida 9209,8 ming so'mgacha bo'lishi kuzatilgan. Bu erda har bir sarflagan so'm o'zini 6,8-8,8 martagacha oqladi.

Sabzavot ekinlari ichida pomidorga ko'p zarar etkazadigan g'o'za tunlamiga qarshi iqtisodiy tejamli va atrof muhitga kam ta'sir qiluvchi himoya tadbirlarini ishlab chiqarishga tavsiya qilish tadqiqotlarimizning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham g'o'za tunlamiga qarshi qo'llanilgan himoya vositalarining iqtisodiy samarasini bilish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham 2017-2018 yillar davomida g'o'za tunlamiga qarshi *Bacillus thuringiensis* bakteriyasi asosida ishlab chiqilgan Bioslip BT biopreparatining xo'jalik hamda iqtisodiy samaradorligi o'rganilgan.

Olingan natijalarning ko'rsatishicha sabzavot ekinlarida g'o'za tunlamiga qarshi Bioslip BT preparati qo'llanilgan variantda - 36,4 s/ga, parazit Brakon qo'llanilganda 26,9 s/ga hosil qo'shimcha saqlab qolindi. Birinchi variantda jami olingan hosilning 78,2 % qismi birinchi navli, 14,5 % i ikkinchi va 7,3 % uchinchi navli hosil ekanligi ma'lum bo'ldi. Ikkinchi variantda bu ko'rsatgichlar 71,3 - 16,8 % va 11,9 % ni tashkil qildi. Bu vaqtda nazorat variantida pomidor mevalarining g'o'za tunlami bilan zararlanishi 84,6 % ni tashkil qildi. Olingan hosilning 16,6 % birinchi, 24,1 % i ikkinchi va 59,3 % i uchinchi navli ekanligi kuzatilgan.

Pomidor ekinlarida g'o'za tunlamiga qarshi qo'llanilgan biologik himoya vositalarining iqtisodiy samaradorligi hisob-kitob qilingan.

Tajribalarning barcha variantlarida nazoratga nisbatan olingan iqtisodiy samaradorlik yuqori bo'ldi va 7621,5 ming so'mdan 9019,7 ming so'mgacha etdi. Bu tajribalarimizda har bir sarflangan so'm o'zini 9,5-13,3 martagacha qoplaganligi aniqlangan.

XULOSALAR

1. Sabzavot ekinlari (karam, pomidor, piyoz) agrobiotsenozida 2 ta sinf, 7 ta turkum, 18 ta oilaga mansub zararkunandalarining 54 turi aniqlangan.

2. Karamda 51 ta, pomidorda 49 ta, piyozda 37 ta tur zararkunandalarning zarari iqtisodiy ahamiyatga ega dominant turlari hisoblanib, ularning 16,7% i o'simlik mevasi bilan, 29,3 % i ildiz bilan, 54,0 % i barg bilan oziqlanib zarar keltiradi.

3. Sabzavot ekinlari agrobiotsenozida 41 ta turdagi tabiiy kushandalar uchraydi. Ular orasida yirtqichlardan entomofaglardan *Coccinella septempunctata*, *Adonia variegata*, *Adalia bipunctata*, *Pterostichus cardaticollis*, *Chrysopa carnea*, *Chrysopa septempunctata*, *Orius niger*, *Phytoseiulus corniger*, *Scolothrips acariphagus*, *Lycosa pseudoannulata* kabi hamda parazit kushandalardan *Diaeretiella rapae*, *Aphidius ervi*, *Apanteles kozak*, *Bracon hebetor*, *Encarsia formosa* kabi turlar ko'p tarqalgan.

4. Oltinko'z kushandasiga qandli va asalli siropga achitqi aralashtirib berilsa etuk zotning qo'ygan tuxumlari soni achitqisiz berilganga nisbatan 10 martagacha ko'p bo'ldi.

5. Ukrop ekini yirtqich entomofaglarni, xantal va arpabadiyon o'simligi parazit entomofaglarini ko'p miqdorda jalb qiladi.

6. Ta'sir etuvchi moddasi lyambdatsigalotrin, imidaklopid va metomil bo'lgan kimyoviy preparatlar qo'llanilgan dalalarda yirtqich kushandalar ishlov berilgandan 5-7 kun o'tib rivojlanib ko'paya boshladi.

7. Karam shirasiga qarshi biopreparatlar bilan kurash tadbirlari o'tkazilganda sarflangan har bir so'm 6,8-8,8 marta, pomidorda g'o'za tunlamiga qarshi kurashilganda 9,5-13,3 martagacha o'zini oqlaydi.

8. Sabzavot ekinlarida shiralarga qarshi oddiy oltinko'z lichinkalari 1:10 nisbatda qo'llash, etti nuqtali oltinko'z lichinkalarini 1:50 nisbatda dalaga tarqatish tavsiya etiladi.

9. Sabzavot agrobiotsenozida mikrobiologik preparatlardan Bioslip BT preparatini shiralarda, o'rgimchakkana va g'o'za tunlamiga qarshi 2,5 kg/ga sarf-meyorda qo'llash tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ АГРАРНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ТАШПУЛАТОВ УЙГУН БЕКМУРЗАЕВИЧ

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ БИОЛОГИЧЕСКОЙ БОРЬБЫ
С ВРЕДИТЕЛЯМИ ОВОЩНЫХ КУЛЬТУР**

06.01.09 – Защита растений

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ
(PhD) ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2022.4.PhD/Qx1036.

Диссертации доктора философии (PhD) в Ташкентском государственном аграрном университете.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.agrar.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант:

Шукуров Хушвакт Мамасолиевич
доктор сельскохозяйственных наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Хайтмуратов Арслонбек Файзуллаевич
доктор сельскохозяйственных наук, старший научный сотрудник

Бойжигитов Фозил Мухаммадиевич
кандидат сельскохозяйственных наук, старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Научно-исследовательский институт овощных, бахчевых культур и картофелеводства

Защита диссертации состоится «__» _____ 2023 года в ____ часов на заседании научного совета DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 при Ташкентском государственном аграрном университете (Адрес: 100140, г. Ташкентская область, Кибрайский район, ул. Университетская, 2. тел.: (+99871) 260-48-00 Факс (+99871) 260-38-60. e-mail: tuag-info@edu.uz. Здание Ташкентского государственного аграрного университета, 1 этаж, конференц-зал)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (зарегистрирована за № _____). Адрес: 100140, Ташкентская область, Кибрайский район, ул. Университетская, 2. Ташкентский государственный аграрный университет, здание Информационно-ресурсного центра Тел.: (+99871) 260-50-43.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 г.
(протокол рассылки № _____ от «__» _____ 2023 г.)

Г.Р.Холмуродова

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.с.х.н., профессор

А.А.Иминов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.с.х.н., профессор

М.Э.Саидова

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.с.х.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире, в качестве продуктов питания, овощные культуры выращивают более чем в 100 странах мира, в той или иной степени удовлетворяя потребность населения в продуктах питания³. В мире лидирующие позиции по выращиванию овощных культур занимают Китай, США, Россия, Индия, Иран. Овощные культуры имеют большое значение в жизни человека и занимают важное место в пищевом рационе. Для непрерывного обеспечения населения этой продукцией круглый год важное значение имеет поиск методов и средств эффективной защиты посевов от болезней и вредителей. На этих культурах встречаются различные болезни и вредители в большом количестве, которые приводят к снижению урожайности до 30-40 %. В результате регулярного применения химических, минеральных удобрений и других химических веществ отрицательно повлиял на показатели биологической активности и плодородия почвы. Также выявлено, что накапливаемые в почве химические соединения, в результате перехода их в растительные продукты, а через них в организм человека, вызывают тяжелые заболевания, нарушения сердечно-сосудистой системы, негативно влияют на наследственность человека и животных. Поэтому актуальной задачей является повышение эффективности методов биологической борьбы с вредителями овощных культур, являющейся безвредной для окружающей среды.

В настоящее время многие виды вредителей, повреждая овощные культуры, уменьшают количество урожая и снижают его качество. Урожайность растений теряется в результате сильного поражения такими вредителями как озимая совка, хлопковая совка, карадрина, минирующие мухи, томатный ржавчинный клещ, паутинный клещ, тепличная белокрылка, оранжерейный трипс, тли и другие вредители, относящиеся к различным систематическим семействам. В то же время стали появляться новые вредители, ранее не встречавшиеся в нашей республике. Поэтому необходимо изучение особенностей биологического и экологического развития и вредоносности этих вредителей, применение научно обоснованных мер борьбы с ними, разработка комплекса экономически выгодных, малотоксичных методов и средств борьбы с ними.

